

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

UZAQOVA LOLA ABDURASHITOVNA

**ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSIDA AXLOQ
MASALALARINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Uzaqova Lola Abdurashitovna

Alisher Navoiy ma’naviy merosida axloq masalalarining
ijtimoiy-falsafiy tahlili5

Узакова Лола Абдурашитовна

Социально-философский анализ нравственных проблем в духовном
наследии Алишера Навои23

Uzakova Lola Abdurashitovna

Social-philosophical analysis of moral issues in Alisher's spiritual heritage45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of works published.....49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

UZAQOVA LOLA ABDURASHITOVNA

**ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSIDA AXLOQ
MASALALARINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal807 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Melikova Martaba Numonovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sharipova Oygul Tursunovna
falsafa fanlari doktori, professor

Karimov Sayimnazar Karimovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil " 8 " avgust soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (696 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil " 26 " iyul kuni tarqatildi.

(2025 yil "26 " iyul dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda axloqqa qarshi destruktiv illatlar – amoralizm, nigilizm, kosmopolitizmni kuchayishi tufayli insoniyat tarixiy taraqqiyotida erishilgan yutuqlarga, buyuk mutafakkirlarning boy ma'naviy merosiga, axloqiy tarbiyaga, inson kamoloti haqidagi qarashlariga bo'lgan talab har qachongidan ham kuchayib bormoqda. Zero, jamiyatni yot g'oyalar tahdididan asrash, ayniqsa, yosh avlod tafakkurini shakllantirish, uni milliy va umuminsoniy axloqiy-estetik qadriyatlar asosida tarbiyalashda mutafakkirlarning ijtimoiy, axloqiy-falsafiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Inson ma'naviy-axloqiy kamoloti to'g'risida barcha ijtimoiy makon va zamon uchun xos universal mezonlar Alisher Navoiy ma'naviy merosida ifodalangani sababli uning ishq, yaxshilik, rostgo'ylik, adolat kabi axloqiy qarashlarini, insonparvarlik, vatanparvarlik, ulug'vorlik kabi axloqiy-mezoniy prinsiplarini zamonaviy yoshlar dunyoqarashiga konstruktiv ta'sirini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va ilmiy tadqiqot markazlarida axloqiy muammolarning ijtimoiy-falsafiy tahlili, jumladan, inson va uning mohiyati, jamiyat hayotidagi ma'naviy barkamollik mezonlari, komil inson haqidagi qarashlarga bag'ishlangan fundamental va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. Global xavf va tahdidlarni oldini olishda, tenglik va umumiy taraqqiyotga intilishda mutafakkir Navoiyning ijtimoiy-axloqiy qarashlarida ifodalangan gumanistik g'oyalar, ratsionalizm tamoyiliga asoslangan qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy ilmiy merosidagi farovon hayot, halol mehnat, insonparvarlik, bag'rikenglik va ma'rifatga undovchi komillik mezonlari xususidagi ma'naviy-axloqiy qarashlarni hamda halollik, to'g'rilik, adolat, haqiqat, vafodorlik, go'zalikka intilish, insof va diyonat kabi bunyodkor g'oyalarini tadqiq etish zururati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy davlat – Yangi O'zbekistonni barpo etish, demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlash, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan tub islohotlar olib borilmoqda. “Buyuk faylasuf va insonparvar shoir Alisher Navoiyning ijodiy merosi nafaqat o'zbek xalqiga, balki butun dunyoga tegishli noyob boylikdir. Navoiy asarlari XVI asrdayoq italyan va nemis tillariga tarjima qilingan bo'lsa, bugungi kunda dunyoning deyarli barcha tillarida yangramoqda. Asrlar davomida hayotning o'ziga xos ensiklopediyasi bo'lgan uning ijodi millionlab insonlarni hayratga solib, ruhlantirib kelmoqda”¹. Shu nuqtayi nazardan Alisher Navoiy ma'naviy-axloqiy qarashlarining zamonaviy yoshlar dunyoqarashiga konstruktiv ta'sirini asoslash, destruktiv g'oyalarga qarshi kurashdagi substansional ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O'zbekistonning yangi

¹ O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari Alisher Navoiy haykalining ochilish marosimida ishtirok etdilar // <https://president.uz/uz/lists/view/7453>. Murojaat sanasi 08. 08. 2024.

taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida" qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Alisher Navoiyning ma'naviy merosi dastlab uning zamondoshlari tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Husayn Boyqaroning "Risola" asarida, Abdurahmon Jomiyning "Haft Afrang", "Yusuf va Zulayho", "Devaniy" asarlarida, Mirxondning "Ravzat us-safo" tarixiy risolasida, Xondamirning "Makorim ul-axloq", Zayniddin Vosifiy "Badoe ul-vaqoe" asarida, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida buyuk mutafakkir shaxsi va uning bardavom merosi tavsiflangan².

XIX asrning birinchi yarmida Yevropada Alisher Navoiy asarlari matnlarini nashr etish, shu asarlar asosida yaratilgan lug'atlar nashr qilish Silvestr de Sasi, Fransua-Alfons Belen, Lyusyen Buva, Pave de Kurteil tomonidan boshlangan. Robert Mak Genri Navoiyning hayot yo'li, davlat boshqaruvidagi strategiyasini. Hamid Dabashi esa fors adabiy dunyosida Navoiy merosining o'rni hamda falsafiy ijodining insonparvarlik mohiyatini, R.Nikolson, N.J.Valmsley, K.P.Kurteyl, M.Sabtel, O.S.Levend, G'ulom Huseyn Hadod Odil, Ye.E.Bertels kabi olimlarning monografik tadqiqotlarida esa mazkur mavzuga aloqador nazariy muammolar, umumlashma va xulosalar o'z ifodasini topgan³.

² Хусайн Бойкаро. Рисола. -Тошкент: Шарқ, 1991. -24 б.; Абдурахмон Жомий. Силсилат-уз заҳаб, Нафаҳот у-л-унс мин ҳазароти-л-қудс // Қўлёзма. Ўзбекистон ФА ШИ № 4409.; Elliot, H. M. (Henry Miers), Sir "Rawzat aş-şafā", of Mirkhond", The Muhammadan Period (Vol 4.). London: Trübner & Co., 1871; Xondamir G'iyosiddin. Makorim ul-axloq: tarixiy asar /Xondamir. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 232 b.; Зайниддин Махмуд Восифий. Бадоеъул вақоеъ. (Нодир воқеалар.) Форсчадан Норкулов Н. таржимаси. -Т.: Ф. Фулом номидаги. Адабиёт ва санъат, 1979. - Б. 38- 39. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент: Юлдузча, 1989. – 367 б.

³ Vambyry A. Cagataische Sprachstudien. Enthaltend grammatikalischen Umri, Chrestomathie und Worterbuch der Cagataischen Sprache. Brockhaus. 1967. - P. 358. Henry R. "Navai, (Mir) "Ali Shir". Encyclopædia Britannica. Vol. 8 (15 thed). Chicago: Encyclopædia Britannica, Inc. 1993. - P. 563; Бертелс Е. Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: 1965. -С. 523. Бертелс Е. Э. Навои и Джами. Избранные труды. Том 4. -М.: Наука, Главная редакция восточной литературы. 1965. - С. 526. Dabashi, Hamid 2012. The World of Persian Literary Humanism. Harvard University Press. - P. 165. ISBN 0-674-06759-2 Куделин А. Арабская литература: поэтика, стилистика, взаимосвязи. – Москва: Языки славянской культуры, 2003. – С. 196. Куделин А. Арабская литература: поэтика, стилистика, взаимосвязи. – Москва: Языки славянской культуры, 2003. – С. 196.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari doirasida Navoiy ma'naviy merosining falsafiy tomonlarini yoritishda I.Yu.Krachkovskiy, Ye.E.Bertels o'z qarashlarini bayon etgan. Nurmuxammad Ashurpur, J.Orbeli adib asarlarining falsafiy mohiyatini e'tirof etgan. A.Xismatulin, A.Knish, G.Eskarxanov, Yusuf Joland Mansur, S.Maxmadullayev, Z.Nabotov, Ibrohim Naqqosh, J.Shayxmetova Markaziy Osiyo ma'naviy merosi taraqqiyotida Navoiy asarlarining ahamiyatini yuksak baholaydi⁴.

Mamlakatimizda O.Bo'riyev, H.Islomiy, E.Karimov, G.Navro'zova, M.Razzoqova, J.Xolmo'minov, O.Sharipova, B.Namozov, Sh.Agzamxodjayeve ilmiy ishlarida Alisher Navoiy ta'limotining falsafiy xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, I.Mo'minovning Alisher Navoiy ijodi va hayoti xususida, M.Muhiddinovning Alisher Navoiy qarashlarida inson konsepsiyasi, H.Aliqulovning Alisher Navoiyning axloqiy va estetik qarashlarini, N.Safarovaning Alisher Navoiyning siyosiy-ijtimoiy qarashlarini, M.Pardayeva Alisher Navoiy asarlarida komil inson g'oyasini tadqiq qilgan. A.Gulova "Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarida umuminsoniy qadriyatlar masalasi", T.Norovning ilmiy ishlarida "Alisher Navoiyning gumanistik qarashlari" tahlil qilingan va mutafakkirning ontologik qarashlar falsafiy-konseptual asoslangan. M.Melikova "Alisher Navoiy merosining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilgan"⁵.

⁴ Shayxmetova J. "Markaziy Osiyoda ma'naviy meros va uning taraqqiyotdagi roli" // Sharqshunoslik va falsafa jurnali, 2015 yil, №3, – B. 45-53; Хисматуллин А. Метод компиляции средневековой рисалы на примере «Рисала-йиабдалиийа» Йа'куба Чархи. иран-наме, № 4, 2009. С. 64-82.; Книш Александр. Мусулмон тасаввуф. Тарж. Қодиркул Рўзиматзода. –Т.: Фан, 2022. – Б. 275.; Эскарханов Г. Л. Суфизм на Северо-Восточном Кавказе: возникновение, идеология, практика. Диссертация кандидата философских наук. - Грозный, 2011. - 185 с.; Махмадулаев С. О некоторых этических точках зрения Якуба Чархи. Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук. – Душанбе, 2015. 34 с.; Юсефи Джонландан Мансур. Мазары Хорасана и Мавераннахра эпохи Тимуридов: XIV-XV вв. Автореферат дисс. на соискание ученой степени канд. ист. наук. – Душанбе, 2009. 26 с.; Мухаммадходжаев А. Идеология накшбандизма. – Душанбе: Дониш, 1991. 234 с.; Наботов З. Проблема человека в Накшбандизме. – Душанбе, 2002. - 125 с.

⁵ Бўриев О. Хожа Алоуддин Аттор. –Т.: Маънавият, 1994. – 23 б.; Яъкуби Чархий // Мулоқот. 1995. № 7-8. – Б. 42-44. Ислоний Ҳ. Алишер Навоий ва Хоразм авлиёлари. – Т.: Фан, 1998. – 66 б.; Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд таълимоти Яъкуби Чархий тавсифида. //Тафаккур зиёси. – Т.: 2020. № 2. – Б. 80-81.; Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Т.: "Фан", 2021. – 244 б.; Холмўминов Ж. Нақшбандия таълимоти ва Марказий Осиё халқлари маънавий бирлиги. –Т.: Yangi Nashr, 2018. – 28 б.; Шарипова О. Абдулҳолик Ғиждувоний. Монография. – Бухоро, "Бухоро нашр", 2020. – Б. 156.; Сафарова Н. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий қадриятлар масаласи. фал. фан. ном. Дисс. Тошкент, 2002. 152 б.; Намозов Б. Мухаммад Порсонинг фалсафий таълимоти. Монография. -Тошкент, "Мумтоз", 2015. –Б. 176.; Ш. Агзамходжаева. Алишер Навоий асарларида инсон концепцияси. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2022.; Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Тошкент: Фан, 1963. – 173 б.; Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. –Тошкент: Фан, 1970. – 330 б.; Зоҳидов В. Мир идей и образов Алишера Навои. –Ташкент: Из-во худ. литературы Узбекской ССР, 1961. – 575 с.; Улуғ шоир ижодининг қалби. –Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – 494 б.; Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. –Тошкент: Ғ. Ғулом, 1991. – 85 б.; Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 216 б.; Рустамов А. Ҳазрат-и Навоийнинг эътиқоди. – Т.: Extremum press. 2010. – 79 б.; Ҳабибуллаев А. "Алишер Навоий "Маҳбуб ул-қулуб" асарининг жанр хусусиятлари" Филол. фан. номз. дис. - Тошкент, 1986; Ҳайитов Ш. "Алишер Навоий "Маҳбуб ул-қулуб" асарининг манбалари ва ғоявий-бадиий таҳлили" Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1997.; Пардаева М. Алишер Навоий асарларида комил инсон ғояси. Фалс. фан. номзоди (PhD) дисс. – Тошкент, 2010; Норов Т. Алишер Навоий онтологик қарашларининг фалсафий-консеptуал таҳлили. Фалс. фан. доктори (DSc) диссер. – Самарқанд; 2022; Меликова М. Алишер Навоий меросининг ижтимоий - фалсафий моҳияти. Фалс. фан. доктори (DSc) дисс. – Самарқанд; 2023.

Mazkur dissertatsiyani yozish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan, shuningdek, boshqa bir qator o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari chuqur o'rganildi va tahlil qilindi. Biroq, ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlardan farqli o'laroq, ushbu tadqiqotda Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan yaxlit tarzda, tizimli yondashuv asosida keng ko'lamda tahlil etilgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an'analar va ularning zamonaviy ko'rinishlarini targ'ib etuvchi platforma yaratish" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi axloq kategoriyalari, tamoyillari va mezonlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Alisher Navoiy yashagan davrdagi tarixiy-falsafiy muhitda madaniyat va ilm-fan rivojlanishining o'ziga xos tomonlarini tadqiq qilish;

Alisher Navoiy ilmiy-ma'naviy merosi tadqiq etilgan ilmiy, nazariy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil etish;

Alisher Navoiy ma'naviy merosiga tasavvuf ta'limotining ta'sirini aniqlash asosida uning dunyoqarashida islom dini, Qur'oni Karim, Hadisi Sharifning o'rnini asoslab berish;

mutafakkir merosida axloq kategoriyalarining majoziy arxitektonikasi hamda axloq prinsiplarining substansional komponent sifatida namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berish;

Navoiy falsafasida axloq masalasining irfoniy jihatlarini nazariy asoslash, axloqiy normalar va amoralistik g'oyalarning tavsiflanishini tadqiq etish;

allomaning komil inson va odil podshoh konsepsiyasidan Yangi O'zbekistonda demokratik jarayonlarni modernizatsiyalashda hamda barkamol avlod tarbiyasida foydalanishning ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiy ijodida aks etgan axloqiy g'oyalar, qadriyatlar va ularning jamiyat va inson munosabatlari tizimida aks etish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Alisher Navoiyning asarlarida ifoda etilgan axloqiy qarashlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning ijtimoiy hayot, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, germeneytik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi falsafiy-axloqiy asoslar (ishq, yaxshilik, rostgo'ylik) va ma'naviy mezonlarning (adolat, insonparvarlik, vatanparvarlik)

yoshlar dunyoqarashiga zamonaviylik kontekstida (hozirgi davr bilan uyg'unligi), komil inson modeli (ideal shaxs konsepsiyasi va uning proyeksiyasi) va modernizatsiya va integratsiya (ta'lim va tarbiya tizimiga integratsiya qilish va mediateknologiyalar orqali yetkazish) kabi konstruktiv ta'siri asoslangan;

Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi yaxshilik, adolat, go'zallik, haqiqat, rostgo'ylik, ulug'vorlik kabi axloqiy-estetik va aksiologik qarashlarining ijtimoiy-siyosiy muhit, ma'naviy-ma'rifiy hayot, davlat va din munosabati va ijtimoiy strukturalar o'rtasidagi madaniy tafovut kabi sotsiostrukturaviy determinantlari ratsionalizm tamoyiliga (diniy va aqliy yondashuv, e'tiqod va ma'naviy-intellektual muvozanat) asoslanganligi kontekstual va semantik darajada ochib berilgan;

Mutafakkir merosida ilgari surilgan komillik mezonlari va qadriyatlar konsepsiyasi (halol mehnat, ilmga chanqoqlik, do'stlik, sabr, toqat, mardlik, bag'rikenglik va insonga mehr), "farovon hayot" madaniy-ijtimoiy modeli (ma'naviy-ruhiy barkamollik, insonparvarlik, bag'rikenglik) yoshlarni destruktiv g'oyalarga qarshi kurashda mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashi, tanqidiy fikrlash va axloqiy pozitsiyani shakllantirishda substansional asos ekanligi isbotlangan;

"Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr" va "Nasoyim ul-muhabbat" asarlaridagi bunyodkor g'oyalar asosida inson kamoloti, jamiyat ravnaqi va ijtimoiy adolat tamoyillariga xizmat qiladigan platforma ishlab chiqish, irfoniy g'oyalar asosida mafkuraviy profilaktika uchun milliy kontentlar yaratish zarurati "g'oya → qadriyat → kontent" prinsipi asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Navoiy qarshlariga tasavvuf, naqshbandiylik tariqatining ta'siri sabablari – tariqatning keng tarqalganligi, nazariy va amaliy jihatlarining rivojlanganligi va yangi mazmun bilan boyitilganligi, naqshbandiylik tariqatidagi ma'naviy-axloqiy va insonparvarlik, undagi ixtiyoriy faqirlik, halol mehnat bilan yashash, nafsni tiyish, tekinxo'rlik, boylik, ta'magirlik va ochko'zlikni rad etish, beva-bechoralar va muhtojlarga xayr-ehson qilish kabi g'oyalar o'ziga jalb qilganligi kabi omillar aniqlashtirilgan;

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr" va "Nasoyim ul-muhabbat" asarlaridagi ijtimoiy-axloqiy qarashlar musiqiy, tasviriylar va boshqa san'at turlari ravnaqiga ta'sir etganligi, yuksak axloqiy madaniyatni shakllantirishi, "ommaviy madaniyat"ning destruktiv mafkurasidan xalos bo'lishda, milliy mafkurani takomillashtirishda nazariy-metodologik va zamonaviy faol shaxsni tarbiyalashda substansional manba ekanligi asoslab berilgan;

Alisher Navoiy ma'naviy merosida axloq kategoriyalarining ifodalanishiga qarab insoniy fazilatlar va ularning ijobiy ko'rinishlari (yaxshilik, mehr-muhabbat, adolat, saxiylik, halollik), insoniy kamchiliklar va yomon xulq-atvor (nafsoniyatsizlik, g'iybat, yolg'onchilik, hasad), axloqiy prinsiplar va qadriyatlar (vatanparvarlik, hurmat-izzat, odob-axloq qoidalari), axloqiy ideal va ularning badiiy talqini kabi. yo'nalishlarda tasniflangan hamda ularning axloqiy-ijtimoiy muammolar, insoniy munosabatlar va tarbiyaviy mezonlar sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan buyuk mutafakkirning ilmiy merosi, uning umuminsoniy g'oyalari va axloqiy qarashlarini tizimli o'rganish hamda ularni yurtimiz va xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib etishda, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojini chuqur anglashga, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ularning qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish, barkamol avlod tarbiyasining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda, shuningdek Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga qaratilgan islohotlarning nazariy asoslarini ishlab chiqishda, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda va komil inson tarbiyasiga doir nazariy va umummetodologik yondashuvlarni takomillashtirish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Alisher Navoiy axloqiy qarashlarining falsafiy tahliliga oid taklif va tavsiyalardan mutafakkirning boy ilmiy-merosini keng jamoatchilikka yetkazish, xotirasini abadiylashtirishga xizmat qiluvchi tashabbuslarni ilgari surishda, asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish, ilmiy nashrlar tayyorlash, shuningdek, Navoiy ijodini o'rganayotgan tadqiqotchilar faoliyatini rag'batlantirish hamda xalqaro ilmiy-ijodiy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda, shuningdek, "Navoiyxonlik kunlari"ni tashkil etish, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, diniy-ma'rifiy loyihalarni yo'lga qo'yish, maxsus ko'rsatuvlar, eshittirishlar, o'quv-ma'rifiy filmlar va multimedia mahsulotlarini yaratishda keng qo'llanishi, ijtimoiy tuzilmalar faoliyatida, tarbiyaviy dasturlar, diniy-ma'rifiy loyihalarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi axloqiy qarashlarning ijtimoiy-falsafiy tahlilini amalga oshirish borasida olingan tadqiqot ishi natijalari asosida:

Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi falsafiy-axloqiy asoslar (ishq, yaxshilik, rostgo'ylik) va ma'naviy mezonlarning (adolat, insonparvarlik, vatanparvarlik) yoshlar dunyoqarashiga zamonaviylik kontekstida (hozirgi davr bilan uyg'unligi), komil inson modeli (ideal shaxs konsepsiyasi va uning proyeksiyasi) va modernizatsiya va integratsiya (ta'lim va tarbiya tizimiga integratsiya qilish va mediateknologiyalar orqali yetkazish) kabi konstruktiv ta'siri asoslanganligiga doir xulosa va tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida AQShning Toshkent shahridagi elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda bajarilgan "English Access Microscholarship

Program” (2022-2024 yy) loyihasida doirasida belgilangan vazifalar ijrosini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 17-iyundagi 1807/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ularda kuchli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini yanada mustahkamlash va istiqbolda takomillashtirishga xizmat qilgan;

Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi yaxshilik, adolat, go'zallik, haqiqat, rostgo'ylik, ulug'vorlik kabi axloqiy-estetik va aksiologik qarashlarining ijtimoiy-siyosiy muhit, ma'naviy-ma'rifiy hayot, davlat va din munosabati va ijtimoiy strukturalar o'rtasidagi madaniy tafovut kabi sotsiostukturaviy determenantlari ratsionalizm tamoyiliga (diniy va aqliy yondashuv, e'tiqod va ma'naviy-intellektual muvozanat) asoslanganligiga doir taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatida, jumladan 2024-yilda tashkil etilgan “Yangi O'zbekiston ma'rifatli jamiyat!” shiori ostidagi “Ma'naviyate festivali”ni o'tkazish chora-tadbirlari dasturini tayyorlashda va 2024-yillik ish rejasining 57-bandi “Hududlarda “Jaholatga qarshi ma'rifat” g'oyasi asosida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada yaxshilash” hamda 58-bandi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish” ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Mahallalari uyushmasining 2024-yil 6-sentyabrdagi 02-03-04/893-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatda yoshlar ongida milliy va diniy qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligi oshishiga, Alisher Navoiyning falsafiy merosi targ'ibotining barkamol shaxs ta'lim va tarbiyasidagi o'zni misolida tadbirlarning mazmunan boyishiga xizmat qilgan;

mutafakkir merosida ilgari surilgan komillik mezonlari va qadriyatlar konsepsiyasi (halol mehnat, ilmga chanqoqlik, do'stlik, sabr, toqat, mardlik, bag'rikenglik va insonga mehr), “farovon hayot” madaniy-ijtimoiy modeli (ma'naviy-ruhiy barkamollik, insonparvarlik, bag'rikenglik) yoshlarni destruktiv g'oyalarga qarshi kurashda mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashi, tanqidiy fikrlash va axloqiy pozitsiyani shakllantirishda substansional asos ekanligi isbotlanganiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida, jumladan 2024-yil birinchi yarim yillik ish rejasining “Yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash maqsadida tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda “Jaholatga qarshi ma'rifat” g'oyasi ostida turkum targ'ibot - tashviqot tadbirlarini tashkil etish” nomli 21-bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 10-sentyabrdagi 4-13-21-4721-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarni Vatanga sadoqat hissini oshirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tafakkurini rivojlantirish va ularga milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligi oshishiga xizmat qilgan;

“Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlaridagi bunyodkor g'oyalar asosida inson kamoloti, jamiyat ravnaqi va ijtimoiy adolat tamoyillariга хизмат қиладиган platforma ishlab chiqish, ирфоний ғоялар asosida mafkuraviy profilaktika uchun milliy kontentlar yaratish zarurati “g'oya

→ qadriyat → kontent” prinsipi asosida aniqlashtirilganligiga oid taklif va tavsiyalaridan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi teledasturlarini tayyorlashda, jumladan 2024-yil 23-avgustda kuni efirga uzatilgan “Ma’rifat shu’lasi” ko’rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 18-sentyabrdagi 01-07/252-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyatda yoshlarda bag’rikenglik, undagi sog’lom ma’naviy olam, yuksak axloqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishdagi taklif va tavsiyalari viloyat teleradiokompaniyasining ma’naviy ko’rsatuvlari samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo’yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 155 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi, muammoning o’rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’yekti, predmeti, tadqiqotda qo’llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Alisher Navoiy ma’naviy merosini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida Alisher Navoiy ma’naviy merosiga ilmiy, nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlil etilib, uning dunyoqarashi shakllanishiga ta’sir ko’rsatgan ma’naviy muhit hamda tasavvuf ta’limoti tadqiq etilgan.

Ulug’ mutafakkirning hayotiy va ijodiy faoliyati hali o’zi hayotlik paytidayoq katta e’tirof bilan o’rganila boshlangan. Shu ma’noda, ushbu tadqiqot ishi bilan bog’liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo’lish mumkin:

Birinchi guruh. Ushbu guruhga bevosita Navoiy hayoti va ijodi, ma’naviy, falsafiy merosini tadqiq etgan xorijlik olimlarni kiritish mumkin. Mutafakkir ijodini falsafiy mohiyatini yoritishda xorijlik olimlardan Muhammadzade Huseyn Siddiqning xizmatlarini e’tirof etish lozim. Arasli o’z tadqiqotida o’sha davrning barcha asarlariga Navoiy ijodi kuchli ta’sir ko’rsatganligini, ba’zi adiblar hatto o’zbek tilida ijod qila boshlaganini ta’kidlaydi. XVI asrda Fuzuliy o’zining “Layli

va Majnun” nomli she’rini mashhur shoir ijodi ta’sirida yozganini haqli ravishda ta’kidlagan. Alisher Navoiy shaxsini o’rganish, uning ilmiy izlanishlari bilan XVIII asrda Silvestr de Sasi shug’ullangan. XIX asrda Hammer va E.F.Gibb uning ijodi bilan qiziqqan.

Ikkinchi guruh. MDH doirasida Navoiy ma’naviy merosining falsafiy tomonlarini yoritishda I.Yu.Krachkovskiy, Ye.E.Bertels o’z qarashlarini bayon etgan⁶. Nurmuxammad Ashurpur, J.Orbeli adib asarlarining falsafiy mohiyatini e’tirof etgan. J.Shayaxmetova Markaziy Osiyo ma’naviy merosi taraqqiyotida Navoiy asarlarining ahamiyatini yuksak baholaydi. A.M.Proxorov, N.Lebedev, B.Furo‘zonfar, J.Nurbaxsh, A.Kudelin⁷ ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir.

Uchinchi guruh. O‘zbekistonda Alisher Navoiy ma’naviy merosi S.Ayniy, Oybek, I.Mo‘minov, M.Shayxzoda, V.Zohidov, A. Sa’diy, I.Sultonov izlanishlari navoiyshunoslarning keyingi avlodining yetishib chiqishiga asos bo‘lgan. Jumladan, H.Aliqulov, S.Karimov, N.Komilov, M.Xayrullaev⁸, I.Haqqulov⁹ tadqiqotlarini keltirib o‘tish mumkin. Ayniqsa, Navoiy merosining falsafiy tahlili, unda borliq, uning yaralishi, mavjudligi, o‘zgarishlar va jarayonlar talqiniga ma’rifiy yondashuv, badiiy obrazlilik, majoz bayoni masalalarini yoritib berishda V.Zohidov¹⁰, T.Norov, I.Sultonov, M.Oripovning tadqiqotlari diqqatga sazovor.

Tadqiqotda Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Saddi Iskandariy” va boshqa bir qator asarlarida qadimgi davr tarixi, falsafasi, yirik faylasuf olimlarining qarashlari, hikmatlari, asarlari ta’riflanadi va qiyoslanadi.

Alisher Navoiy tasavvuf falsafasiga bag‘ishlab, fors tilida Foniylar taxallusi bilan yozgan “Ruh ul-quds”, “Ayn ul-hayot”, “Tuhfat ul-afkor”, “Qut ul-qulub”, “Minhoj un-najot”, “Nasim ul-huld” qasidalarida boshdan oyoq tavhid, tafsir, kalom ilmlariga doir falsafiy masalalarni muhokama qiladi. Afsuski, Foniylarning bu nodir asarlari O‘zbekiston falsafa tarixida hali ilmiy muomalaga kiritilmagan¹¹. Holbuki, bu asarlarda faqat tasavvuf bilan cheklanilmagan, ularda aksiologiya, antropologiya, gnoseologiya, ontologiya, etika va estetikaga doir masalalar muhokama qilingan. Bularni o’rganish uchun olimlarimiz mumtoz Sharq falsafasi manbalarini yaxshi bilishi zarur.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Navoiy qadimgi Yunon madaniyati va falsafasiga katta ahamiyat bergan. U bularning jahon sivilizatsiyasi va tafakkur tarziga ko‘rsatgan ta’sirini his qilgan. Bunga bilish jarayoni, hissiyotning roli, Qadimgi Yunon olimlari, faylasuflariga bergan iqtiboslari dalil bo‘la oladi. Alisher

⁶ Бертельс Е.Э. Наваи и Джами. Избранные труды. Т.3. – Москва: Наука, 1965. – С. 272.

⁷ Куделин А. Арабская литература: поэтика, стилистика, взаимосвязи. – Москва: Языки славянской культуры, 2003. – С. 196.

⁸ Хайруллаев М.М. Навоий дунёқарашининг ғоявий манбаларини ўрганиш ҳақида.// Навоий ва адабий таъсир масалалари. –Тошкент: Фан, 1968. – Б. 334.

⁹ Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Т – 1993. – Б. 48.

¹⁰ Захидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Ўзбекистон, 1970. -332 б; Захидов В. Мир идей и образов Алишера Навои. –Из-во худ. литературы Узбекской ССР, 1961. – Б. 245. Boshqa mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

¹¹ N.Komilovning “Faqr nuri porlagan qalb” risolasi, Sh.Sirojiddinovning “O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari” monografiyasi bundan mustasno.

Navoiyning islom olamining yirik darg'alari, mashhur shayxlar, imomlar, hadisnavislar, tasavvuf tariqatlar va suluklar asoschilari merosidan bahramand bo'lganligi, uning ijodidida, ayniqsa "Nasoyimul-muhabbat", "Majolisun-nafois" kabi asarlarida axloqni asosiy substansional komponent sifatida foydalanishiga sabab bo'lgan. Tasavvufning naqshbandiylik tariqati g'oyalari Alisher Navoiy asarlariga chuqur singib ketgan. Mutaakkirning falsafiy va axloqiy qarashlari ham naqshbandiylik tariqati tamoyillariga asoslanadi. Alisher Navoiy badiiy ijodining majoziy xususiyati naqshbandiylik tariqati g'oyalari bilan uzviy bog'liqdir.

Navoiy asarlarini o'rganish shundan dalolat beradiki, adabiyot bilan qiziqishning kuchliligi temuriylar davrining o'ziga xos xususiyati edi. Shuni ham ta'kidlash joizki, XIV-XV asrlarda ikki, ya'ni o'zbek va forsiy tillarda ajoyib asarlar yaratgan o'zbek shoirlari fors-tojik mumtoz adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Alisher Navoiy ma'naviy merosida axloqiy kategoriya, prinsip, me'yor dialektikasining namoyon bo'lish xususiyatlari**" deb nomlanib, unda Alisher Navoiy ma'naviy merosida axloq kategoriyalarining majoziy arxitektonikasi, axloq prinsiplari va axloqiy normalar va amoralistik g'oyalarning tavsiflanishi tahlil etilgan. Bundan tashqari mutaakkirning asarlarida jamiyatdagi turli toifalarning axloqiy qiyofasi tadqiq qilingan.

Dissertant fikricha, Navoiyning hayot falsafasi yaxshilik g'oyalarini tarannum etish, yomonlik g'oyalarini esa tanqid qilishga qaratilgan. Bu hayot falsafasida insonlarni yomonlikdan nafratlanishga undash mavjud. Yaxshilik g'oyalari qonun, adolat, ishq va to'g'rilikda namoyon bo'ladi. Demak, ular barkamol insoniy fazilatlarda mujassamdir. Navoiyning fikricha, eng katta yomonlik bu xalqqa qilingan jabr-zulmdir¹². Allomaning zulmni qoralashi abstrakt emas, balki konkret xarakterga ega. U konkret subyektlarga, ya'ni zulmning sababchilariga qaratilgan.

Alisher Navoiyning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlari yuksak badiiy mazmun va shaklda tasvirlangan. Bu fikrlar umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun o'sha davr va hozirgi kunda ham o'zining falsafiy va axloqiy ahamiyatini yo'qotgan emas. Shuning uchun bu asarlar jahonshumul falsafiy-axloqiy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Tadqiqot ishida Alisher Navoiy ma'naviy merosida axloq kategoriyalarini ifodalanishi quyidagicha tasniflangan:

Yaxshilik va yomonlik kategoriyalarini idrok etish Alisher Navoiyning axloqiy konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Navoiy konsepsiyasida shaxsning ichki tabiati bilan uzluksiz kurash olib borishi, dunyoviy vasvasalarni yengishi orqali ifodalanadigan insonning majburiy ma'naviy kamoloti g'oyasi yotadi¹³. U ushbu tushunchani juda keng ma'noda tushunib, u orqali yoshlarning xulq-odobi va yurish-turishini, axloqiy fazilatlarni baholaydi. Navoiyning fikricha, insonning ichki erkinligi shahvoniy lazzatlardan tiyilishga intilish va iztirobdan voz kechish qobiliyatidadir, bu esa insonning ichki ozodligini targ'ib qilgan qadimgi yunon

¹² Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. –Toshkent: "Sharq". 2016. – B. 163.

¹³Жумабоев Й.Ж. Навоийнинг ахлоқий қарашлари. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1991. 2 - орзу. - Б.34.

kinik faylasuflarining g'oyalariga juda o'xshashdir. Odamlarning tengligi, boylik va moddiy boyliklarni mensimaslik¹⁴.

Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida zot, sifat (sifatning ko'pligi) va kamolot kabi tushunchalar ishlatiladi. Bu tushunchalar orqali odamning insoniylik holatini belgilovchi sifatlar tavsiflanadi. Axloqshunoslik nuqtai nazaridan olganda Navoiy bu asarida jamiyatdagi turli tabaqalarning axloqiy qiyofasini ta'riflaydi. Navoiy nazarida yomon nuqsonlar bir tabaqa yoki toifagagina xos emas. Shoir yomon nuqsonlar podsho, shayx, sarkarda va savdogarda ham bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi.

Navoiy tushunchasida *ezgulik* kategoriyasi xalqni azob-uqubatlardan, qashshoqlikdan, o'zboshimchalikdan har qanday himoya qilishdan iboratdir. Va bu nuqtai nazardan u hukmdorlarning, hokimiyatdagilarning xatti-harakatlarini tavsiflash uchun mo'ljallangan va adolat tamoyiliga rioya qilishda, saxovatlilik, oliyjanoblikda ifodalangan keng ijtimoiy kategoriya vazifasini bajaradi. Navoiy shaxslararo munosabatlarda *ezgulik*ni halollik, rostgo'ylik, mehr-oqibat va o'zaro hurmat, hamkorlik va o'zaro yordamning namoyon bo'lishida, qo'shning dardiga hamdardlik, halol va ezgu mehnatda ko'radi. Bularning barchasi birgalikda yovuzlikka ziddir.

Navoiy *yovuzlik* kategoriyasini katta ijtimoiy illat – adolatsizlik, xalqqa zulm sifatida baholagan. Mufakkir yovuz ishlarni fosh etib, hokimiyat egalarining illatlarini, g'ayriinsoniyligini qoralaydi, madrasada nohaq hukmdor, qozi, ochko'z ruhoni, johil muallim va ustoz qiyofasida ko'rsatilgan zolimlarning nopok qilmishlarini fosh qiladi. Navoiy mazlum va faqirlar himoyasiga ko'tarilib, hokimiyat egalarining asl qiyofasini, ularning buzuvchi va riyokorligini, riyoyu makkorligini fosh etadi. Navoiy shunday yozadiki, odamlar shayton yo'lini, yovuz ruhlarning odatlarini shunday tanladilar. Ularning xulq-atvori hiyla-nayrang va yovuzlik, adolati shubha va yolg'onda namoyon bo'ladi, xiyonat va ayyorlikda namoyon bo'ladi¹⁵.

Muhabbat kategoriyasi, uning tabiati, inson hayotidagi o'rni bilan bog'liq muammolar Alisher Navoiy ma'naviy merosida fundamental muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammo inson mavjudligi, uning dunyodagi qadriyat yo'nalishlari va inson hayotining mazmuni masalalari bilan o'zaro bog'liqdir. Navoiy muhabbatni insonning hayotiy tasavvurlari konstruksiyasining asosi bo'lgan ekzistensial, uning tabiatini belgilovchi hayotiy qadriyat sifatida tushunadi¹⁶.

Navoiy uchun *adolat* nafaqat axloqiy kategoriya, balki estetik toifa sifatida ham harakat qilgan, chunki u adolatni hukmdorlar hamjihatligi, inson kamoloti natijasi deb bilgan. Navoiy ham Aflotun singari jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy hayotining adolati deb hisoblagan. U odamlarni adolat shiori ostida birlashishga chaqirdi. Mufakkir *ezgulik*ning asosiy belgisini o'zaro yordam va hamkorlikda ko'rgan, bu esa o'z navbatida jamiyatning barcha a'zolarini yurt farovonligi va ravnaqi yo'lida birlashtiradi.

¹⁴ Нахов И.М. Киник фалсафа тарихи бўйича иншо. М. Фан. 1984. 398 б.

¹⁵ Alisher Navoiy.. Mahbub ul qulub. - Toshkent. "Yoshlar nashriyot uyi", 2018. - B.132..

¹⁶ Navoiy Alisher. Xamsa. Layli va Majnun. - Toshkent: "Sharq", 2016. – B. 210.

Navoiyning *axloqiy ideali* aql va komillikni o'zida mujassam etgan barkamol shaxsdir. Navoiyda barkamol shaxs ideali Farhod, Iskandar Zulqarnayn, Suqrot, Aflotun obrazlarida gavdalansa, Navoiy payg'ambar Muhammad, Nizomiy, Naqshbandiy, Jomiyning haqiqiy ibrat namunasi deb biladi.

Dissertatsiyada Navoiy ijodidagi axloqiy prinsiplar quyidagicha sharhlangan:

1. *Insonparvarlik prinsipi*. Insonga muhabbat, uning qadr-qimmatini va huquqlarini hurmat qilish, ularga xizmat qilish Navoiy qahramonlarining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Navoiyning fikricha, haqiqiy inson bo'lish insonparvarlik prinsiplariga doimo sodiq bo'lish demakdir. Bunday fazilatlar ega bo'lgan odam esa o'z turiga qarshi chiqmaydi. Insonni "Karramano" mukarram va eng go'zal suratli qilib yaratilganini alohida ta'kidlaydi.

2. *Adolatlilik prinsipi*. Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy falsafasi adolat, tenglik, xalqning o'zini o'zi boshqarish tamoyillariga asoslangan barkamol va yaxlit jamiyat qurish g'oyasiga asoslanib, ko'plab ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarning asosiy o'zagi bo'lgan. Alisher Navoiyning jamiyat rivojiga o'zining ijobiy ta'sir o'tkazuvchi narsa hodisalardan tashqari, oddiy mehnatkash xalqning g'azabini keltiruvchi, uning nafratiga sazovor bo'luvchi illatlar, hozirgi kun tili bilan aytganda korrupsion holatlarning paydo bo'lishi, uning jamiyat taraqqiyotiga ziyon yetkazuvchi tomonlari haqida ham juda ko'plab falsafiy ahamiyatga molik bo'lgan mushohadalar yozib qoldirgan.

3. *Ziyolilik prinsipi*. Navoiy jamiyat a'zolarining bilim darajasi taraqqiyotning muhim omillaridan biri, degan fikrga asoslanadi. Bilimli kishilar jamiyatida samimiy munosabatlar shakllanadi, xalq farovon yashaydi, baxt-saodatga erishadi, umuman olganda taraqqiyotda ijobiy tendensiyalar namoyon bo'ladi. "Hayratul-abror"da ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqidakim, bilimsizlik tunini yoritish uchun "ayn"i quyosh, "lom"i oy, "mim"i kunduz belgilarini ko'rsatadi; bilimsizlik shomining qorong'i ko'rinishi haqidakim, g'aflat chohini pastlik kechasida zohir qilib, bu kechada baxtsizlikdan hikoya aytadi; olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi, johilning esa butun borlig'i boylik, mol (mol-davlat) bo'lsa ham tuproqdek xorligi bobida dunyoning ishi yaratilgandan buyon dushmanlikdan iborat bo'lib, olimlar xor, johillar aziz¹⁷.

4. *Vatanparvarlik prinsipi*. Alisher Navoiy o'z ta'limiy-axloqiy asarlarida odob-axloq qoidalari bilan bir qatorda vatanparvarlikni ulug'lagan. Masalan, uning quyidagi ruboyisi insoniyat o'zi tug'ilib o'sib, voyaga yetgan vatani mol-mulkdan ham, boy-badavlat yurtlardan ham afzalligini ulug'laydi.

5. *Jamoatchilik prinsipi*. Alisher Navoiy o'zining g'azal, ruboiy va dostonlarida jamoatchiliklik g'oyalarini tarannum etish bilan birga, avvalo o'zi insoniylikda boshqalarga o'rnak bo'ldi, doimo oddiy xalq g'am-tashvishi bilan yashadi. Xondamir aytganidek, "Ul hidoyat va iqbol osmonining quyoshi yoshlikdan o'sib-ungan davri davomida dunyo va undagi narsalardan iltifotsizlik yengini silkigan, hech qachon himmat etagiga foniy dunyo moliga muhabbat g'uborini, bu jahon ashyosiga qiziqish gardini yuqtirmagan"¹⁸.

¹⁷Navoiy Alisher. Xamsa, Hayrat ul-abror .- Toshkent: "Sharq", 2016. – B.15.

¹⁸ Хондамир. Мақорим ул-ахлоқ. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – Б. 62-63.

6. *Mehnatsevarlik prinsipi.* Alisher Navoiyning axloqiy qarashlarida mehnatga munosabat, mehnat qilayotgan kishilarga ma'naviy baho berish asosiy masalalardan biridir. Umuman olganda, mehnatga munosabat har qanday axloqning muhim tamoyili hisoblanadi. Mehnat ijtimoiy obyektiv zarurat sifatida insonning tarixiy rivojlanishida hamroh bo'ladi. Mehnat odamlar o'rtasidagi munosabatlar sifatida dastlab iqtisodiy kategoriyadir. Biroq, mehnatning axloqiy tomoni insonning mehnatga munosabati motivlarini aks ettiradi. Mehnat faoliyatiga munosabat Navoiy dunyoqarashi va fuqarolik pozitsiyasining asosiy omilidir.

7. *Do'stlik prinsipi.* Navoiy dunyo uyg'un bo'lishi uchun odamlar bir-biri bilan muloqotda yashashi kerakligini yaxshi tushunadi. Odamlar do'stlikni qadrlashlari kerak. Bir kishining quvonchi, do'stlik tufayli, inson mavjudligining to'laqonli holatiga aylanadi. Bundan tashqari, avvalgi bandlarda ta'kidlaganimizdek, Navoiy sadoqatni jamiyatdagi odamlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladigan, ma'naviy-axloqiy qarashlar tizimida imperativ deb ataladigan axloqiy fazilatlarining mutlaq va so'zsiz omili deb biladi. Sadoqat insondan har qanday hayotiy sharoitda ham boshqa odamga doimo sevgi, rahm-shafqat, hamdardlik ko'rsatishni talab qiladi. Sadoqat quyoshga o'xshaydi, u befarqlik bilan o'z nurini beradi, hayot va taraqqiyot olib keladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Hazrat Navoiyning hayotda qilgan ishlari davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini og'ir qismatini yengillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, nasriy va nazmiy asarlarining mazmun-mohiyati umuminsoniy va gumanistik rux bilan sug'orilgan. Axloq masalasida Navoiy asarlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, u asarlarida hayosizlikni tasvirllovchi obrazlarni yaratmaydi. Shunisi xarakterliki, Navoiy asarlaridagi qahramonlarining hayotida "uyat o'limdan qattiq" tamoyili amal qiladi. Masalan, Farhod va Shirin hayosiz harakat bilan amalga oshishi mumkin bo'lgan visol damrlaridan voz kechadilar, hayosizlikdan o'limni afzal ko'radilar. Mutafakkir badiiy uslublar orqali insonparvarlikka ijtimoiy mazmun beradi. Kamtarlik, vafodorlik, nafsni tiyish, rostg'ylik, saxiylik, donolik, aqllilik, muhtoj va yetim-yesirlarga yordam berish, bag'rikenglik, muloyimlik, shirinsuxanlik, shijoatkorlik, ezgulik, mehr-muruvvat, rahmdillik, odamiylik - bularning hammasi insonparvarlikning tarkibiy qismi, muhim xususiyati bo'lib, insonni kamolot sari yetaklaydi, uni komil inson qilib tarbiyalashga yordam beradi.

